

**O'zbek latifalarini ingliz tiliga tarjimalari va tadqiqi**

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*PhD talabasi*

*e-mail: [khusanbayeva@bk.ru](mailto:khusanbayeva@bk.ru)*

Birgina buyuk olim Mahmud Qoshg'ariy qoldirgan meros, "Devonu lug'atit turk" qadimdan folklor asarlarning o'rganish, yig'ish va tarjima qilish qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatsa, hozirgi zamonaviy dunhoda ham folklor asarlarni bitta tildan boshqa tilga tarjima qilish shunchalik muhimligini bildiradi. Folklorning kulgili janrlaridan biri bo'lgan shulardan biri. ЛАТИФА араб. — "latif" so'zidan olingan bo'lib, mutoyiba, hazil ma'nolarini anglatadi va xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya. Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Latifalar qahramoni jonli va ta'sirchan so'zlaydigan, hazilmutoyibaga boy, haqiqat va adolatni himoya qiluvchi hozirjavob shaxs. Latifa syujetini qochiriq, kesatik, piching to'la hajviy epizod va holatlar tashkil etadi. Sarguzasht xarakteridagi syujet sodda va lo'nda ifoda etiladi. Latifaning ilk namunalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Sa'diyning «Guliston» asarlarida uchraydi. Latifa janri 11-asrdan so'ng keng shakllandi va rivoj topdi. Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy», Alisher Navoiyning «Hamsa» va boshqa asarlarda xalq orasida ma'lum va mash'hur bo'lgan Latifalardan foydalanilgan. Latifa qahramoni o'zbeklarda Afandi, tojiklarda Mushfiqiy, turkmanlarda Mirali nomi bilan yuritiladi. O'zbek xalq latifalarini dastlab Sharif Rizo to'plab, nashr ettirgan (1941).<sup>1</sup>

Tilshunoslikda ingliz va rus tillarida bir qancha olimlar (Platon, Sitseron, Kvintilian, Aristotel, T. Gobbs, M. Stendal, I. Kant, F. Shelling, G. Gegel, A. Shopengauer, L. Feyerbax, G. Lessing, A. Bergson, A.M. Makaryan, M.S. Kagan, Yu.B. Borev, B. Dzemidok, A. Luk, L.V. Karasev, M.M. Baxtin, V.Ya. Propp, V.P. Shestakov, A.V. Utkina, E. Obuen, J. Shato, R. Eskarpi, K. Gross, D. Chyaro, S. Attardo, A. Kestler, V. Raskin va boshqalar) hajviyalar ustida ilmiy-izlanishlar olib borishgan va hajviyaning o'ziga xos nazariyalari, uning semantik va pragmatik, qiyosiy tahlillarini

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. "Л" ҳарфи. Бетлар 53-54. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси

ilmiy jihatdan o'rganishgan. O'zbek tilshunosligida hajviy matnlar borasida bir qancha ilmiy izlanishlar adabiyot va folklorshunoslik sohalarida amalga oshirilgan. O'zbek xalq latifalariga qiziqish XX asrning boshlarida boshlangan edi. Biroq chinakamiga to'plash, nashr etish, ilmiy tadqiq qilishga 30-60-yillarda asos solindi va turli darajada hozirga qadar davom etmokda. Hajviy matnlar bo'yicha quyidagi ilmiy tadqiqot ishlarni ko'rish mumkin. R.Muqimov, Yo.Jo'rayev, H.Razzoqov, F.Yo'ldoshevalar latifa janrining g'oyaviyligi, mavzulari va obrazlarini yoritish masalalarini ko'rib chiqishgan. Sh.Rizo, S.Abdulla, A.Rahmat, H.Razzoqov, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Yo.Jo'rayev, U.Yo'ldoshev esa latifalarning lingvokulturologik va stilistik xususiyatlarini o'rganganlar. B.Sarimsoqov, F.Yo'ldoshevalar latifalarning namunalarini to'plash va nashr etishga doir ishlar va O.Sobirov, B.Sarimsoqov, F.Yo'ldosheva, K.Imomovlar xalq latifalarining janr xususiyatlarini aniqlashga oid ilmiy – izlanishlar olib borishgan.

O'zbek xalq latifalarining ingliz tiliga tarjimalarini I.Shoh, Merilin Peyterson, Ruslan Hakimov to'plamlarida uchratish mumkin. 1974 yil Londonda Idris Shohninh "The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin"<sup>2</sup> to'plami nashrdan chiqdi. Unda Nasiriddin Afandi haqidagi 111 ta latifaning ingliz tiliga o'girilgan tarjimalari berilgan va shulardan 38 tasi o'zbek xalq latifalari ekanligi aniqlangan.<sup>3</sup> 2000 yilda esa muallfi Merilin Peterson bo'lgan "Treasury of Uzbek Legends and Lore"<sup>4</sup> nomli to'plamni nashr etadi.

Bundan tashqari, bolalar latifalarini ham chet tillariga tarjima qilish bo'yicha ham yirtimizda ahamiyatli ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, 4 tilda chop etilgan "Xo'ja Nasriddinning g'aroyib latifalari" nomli asar Germaniyaning "Peacock Verlag Berlin" nashriyoti bilan hamkorlikdagi ishlardan biri hisoblanadi. "Xo'ja Nasriddinning g'aroyib latifalari" kitobiga 40 ta hikoya kiritilgan bo'lib, ular o'zbek, rus, nemis va ingliz tillaridagi tarjimalarda berilgan. Ushbu nashrning e'tiborli jihati shundaki, kitob O'zbekiston va Germaniya maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning bevosita ishtirokida yaratilgan. ... Kitobga taniqli o'zbek va nemis aktyorlari tomonidan o'qib

<sup>2</sup> Shah I. The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin. – London, 1974. – P.112.

<sup>3</sup> У.Р. Йўлдошев. Бадий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультуролагик хусусиятлари. Тошкент.-2021. Б. 140.

<sup>4</sup> Peterson Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol-Kamolot. 2000. – P.188.

berilgan hikoyalarning ko`p tovushli audio yozuvi bo`lgan CD ko`rinishidagi kompakt disk qo`shilgan.<sup>5</sup>

**Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Л” ҳарфи. Бетлар 53-54. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси
2. Shah I. The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin. – London, 1974. – P.112.
3. У.Р. Йўлдошев. Бадиий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Тошкент.-2021. Б. 140.
4. Peterson Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Т.: Qatortol-Kamolot. 2000. – P.188.

---

<sup>5</sup> Feruza Temirova, BOLALAR LATIFALARINING QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 17-SON 20.03.2023